
Qishloq ayollariga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatildi

📌 Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2007 yilda qishloq hududlarida istiqomat qilayotgan ayollarning muammolariga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish, ularning ahvoli, turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida maxsus rezolyusiya qabul qilinib, unga ko'ra 15 oktyabr - Xalqaro qishloq ayollari kuni, deb belgilandi.

*☐ Ushbu sana dunyoning ko'plab mamlakatlarida nishonlab kelinadi. Jumladan, mamlakatimizda ham bir necha yillardan buyon ushbu kun munosabati bilan qishloq ayollarini qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini yengillashtirishga qaratilgan tadbirlar o'tkaziladi. Joriy yilda ham ushbu kunni yanada keng nishonlash, qishloqlarda yashovchi xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy, targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazilmoqda. Bugun Hasanboy Boyyigitov rahbarlarigidagi "Qayrag'och hosildor yerlari" fermer xo'jaligida tashkil etilgan bayram tadbirida ham ayollarga yuksak hurmat-ehtirom ko'rsatildi.

☐ Tadbirda tuman hokimi va sektor rahbarlari, qishloq xo'jaligi sohasi vakillari qatnashib, har jabhada ilg'or va tashabbuskor bo'lgan ayollarni bugungi sana bilan samimiy qutlashdi.

☐ Tadbirda so'z olganlar, qishloq hududlarida yashab, turli sohalarda samarali mehnat qilayotgan, farzandlar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan opa-singillarimizni qo'llab-quvvatlash, ularning og'irini yengil qilishga ko'maklashish, o'z hayotlaridan rozi bo'lib yashashlarini ta'minlash doimiy va yeng muhim vazifalardan biri ekanini ta'kidladilar. Shuningdek, oilalar mustahkamligini ta'minlash, ayolning oiladagi o'rnini, oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga oqilalik bilan yechim topish, farzandlar tarbiyasini chiroyli tarzda yo'lga qo'yish yuzasidan taklif, fikr va mulohazalar bildirildi.

📌 Tadbirda loabar ayollarga tuman hokimligi, ASM xodimlari kasaba uyushmasining esdalik sovg'alari topshirildi. Bundan tashqari, Viloyat va tuman Kengashi deputatlari hamda Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi tuman bo'limi tomonidan ham fermer xo'jaligi xodimlariga qimmatbaho sovg'alar berildi. Respublika Ma'naviyat va ma'naviyat markazi tuman bo'linmasi va tuman madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan tayyorlangan badiiy dastur barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

2022-10-15 15:31:13